

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Davlat belgisi» davlat unitar korxonasi bosh direktori Azizzon Xamidovning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha**

**M U R O J A A T I**

*“Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz”*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat MIRZIYOYEV*

Korrupsiya dunyo mamlakatlaridagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. U jiddiy ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy va siyosiy muammolar keltirib chiqaradi hamda davlat organlari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi va rivojlanishiga to‘sinqilik qiladi.

Davlatimiz rahbarining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloni oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi” deb bejizga ta’kidlanmagan.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdag‘i jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida ham korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rish, uni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha samarali tizimni shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, korxonada korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilma tashkil etilganligi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki meyoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi, ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish, xaridlarni amalga oshirishda korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va bartaraf etish amaliyotlari joriy qilinganligi kabi qator amaliy ishlarni keltirib o‘tish mumkin.

Shuningdek, Davlatimiz rahbarining 2022 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmonida ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartini qo’llashni ko‘zda tutuvchi talabni o‘rnatish vazifasi qo‘yligan.

Shunga ko‘ra, korxonada mazkur tizimni joriy etish maqsadida sertifikatsiyalash organi tomonidan sertifikatsiyalash auditi muvaffaqiyatli o‘tkazildi hamda korxona ISO 37001:2016 xalqaro standart talablarini qo‘llashga muvofiqligi tasdiqlandi.

ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatini olish orqali korxona o‘zining hamkorlariga, davlat idoralari va boshqa manfaatdor shaxslarga korrupsiya holatlarini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan barcha choralarini xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirayotganini ko‘rsatadi.

Korxonada korruksiyaning oldini olish choralarini ko‘rish, uni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish hamda korruksiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirish borasidagi ishlar kelgusida ham izchillik bilan davom ettiriladi.

Korxona korruksiyaga qarshi kurashish va korruksiyaviy holatlarni barvaqt oldini olish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etishda korxona ishchi-xodimlari hamda fuqarolarimizning faolligini va tashabbuslarini qullab-quvvatlaydi.

Korxona xodimlarining qonunchilikka zid xatti-harakatlari yoki harakatsizliklarining guvohi bo‘lsangiz yoki xodimlarning korruksiya va boshqa huquqbazarlik holatlariga aloqadorligi yuzasidan ma’lumotlarga ega bo‘lsangiz, ”Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi (88) 148-14-22 raqamli Ishonch telefoni yoki ushbu aloqa kanallari: [@davlat\\_belgisi](https://t.me/davlat_belgisi) telegramm bot va [davlatbelgisi.uz](mailto:komplaens@davlatbelgisi.uz) rasmiy veb-sayti, [komplaens@davlatbelgisi.uz](mailto:komplaens@davlatbelgisi.uz) elektron pochta ijtimoiy tarmog‘idagi aloqa kanali orqali o‘z murojaatingizni yo‘llashingiz mumkin.

Murojaatingiz qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqiladi hamda tasdiqlangan korruksiyaviy holatlar bo‘yicha keskin qonuniy choralar ko‘riladi.

O‘z navbatida, korxonada mehnat qilayotgan har bir rahbar va xodimni korruksiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishga hamda o‘z xizmat vazifalarini halol va xolis bajarishga yana bir bor chaqiraman.